



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [30660-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30660/1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 02.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



**Tuxtaboyeva Feruza Muratovna.,
Ismoilov Ibroximjon Xakimjon o'g'li.,
Hoshimova Maftuna Rashidjon qizi.,
Axmadjonova Azizaxon Asqarbek qizi.**
Andijon davlat universiteti
Uzbekistan

NA'MATAK O'SIMLIGINING BA'ZI FOYDALI XUSUSIYATLARI VA ORGANIZIMGA TA'SIRI

Abstract: This article provides information about the species of the rosehip plant, its beneficial and harmful effects on the body, and its nutritional value. Rosehip is a perennial shrub that blooms beautifully in early spring and delights with its ripe fruits in late summer and early September. This plant is also popularly called "wild rose".

Keywords: Rosehip, ascorbic acid, wild rose, avitaminosis, carotolin.

Annotatsiya: Ushbu maqola na'matak o'simlik turlari, organizmga foydali va zararli ta'sirlari, ozuqaviy qiymati haqida ma'lumotlar berilgan. Na'matak - erta bahorda chiroyli pushti rangli gullaydigan, yozning oxiri va sentabr oyining boshida pishib yetilgan mevalari bilan quvontiradigan ko'p yillik buta. Xalq orasida bu o'simlik «yovvoyi atirgul» deb ham ataladi.

Kalit so'zlar: Na'matak, askorbin kislotasi, yovvoyi atirgul, avitaminoz, karotolin.

Аннотация: В данной статье представлена информация о различных видах растений, их полезном и вредном влиянии на организм, а также их пищевой ценности. Шиповник – многолетний кустарник, цветущий ранней весной красивыми розовыми цветками и созревающий в конце лета – начале сентября. В народе это растение еще называют «дикой розой».

Ключевые слова: Шиповник, аскорбиновая кислота, шиповник, авитаминоз, каротолин.

Language: Uzbek

Citation: Tukhtaboyeva , F., Ismoilov , I., Hoshimova , M., & Akhmadjonova , A. SOME BENEFICIAL PROPERTIES AND INFLUENCES OF THE ORGANISM OF NAMATAK PLANT. Universal International Scientific Journal, 1(9), 18–21. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1202>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14293681>

Na'matak bo'yi 2 m ga yetadigan tikanli buta. Novdasi egiluvchan bo'lib, yaltiroq qo'ng'ir-qizil yoki qizil-jigarrang tusli po'stloq hamda tikanlar bilan qoplangan. Bargi toq patli, poyada bandi bilan ketma-ket o'rnashgan. Bargchasi (5-7 ta) tuxumsimon shaklli va arrasimon qirrali. Gullari yirik, yakka yoki 2-3 tadan shoxlarga o'rnashgan. Guli qizil, pushti, sariq yoki oq rangli, xushbo'y hidli. Guloldi barglari lansetsimon. Kosacha bargi va toj bargi 5 tadan, otalik va onaliklar ko'p sonli. Mevasi gul o'rnidan hosil bo'ladigan shirali soxta meva. Ichida onaliklaridan hosil bo'lgan bir nechta haqiqiy meva yong'oqchalar bor. Yong'oqcha o'tkir uchli, sertuk bo'lib, burchaksimon shaklga ega. Na'matak turlari o'rmonlarda, ariq bo'ylarida, butalar orasida, tog'larning quruq toshloq yon bag'irlarida va boshqa yerlarda o'sadi. Na'matakning ayrim turlari bir-biridan mevasining, novda po'stlog'idagi tikanning rangi, shakli, katta-kichikligi hamda novdadagi

tikanlar soni va joylashishiga qarab farq qiladi. Quyida ayrim na'matak turlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Jadval 1. Na'matak o'simligining turlari.

<i>Na'matak nomi</i>	<i>Lotincha nomi</i>
Maydagul na'matak	<i>Micrantha Smith Rosa</i>
May na'matagi (dolchinsimon na'matak)	<i>Nerrni. (Rosa cinnamomea L.) Rosa majalis</i>
Itburun na'matak	<i>Rosa canina L</i>
Zangezur na'matak	<i>Rosa zangezura P. Jarosch.</i>
Burushqoq na'matak	<i>Rosa rugosa Thunb</i>
Begger na'matagi	<i>Rosa beggeriana Schrenk</i>
Pahmoq na'matak	<i>Rosa tomentosa Smith.</i>
Tikanli na'matak	<i>Rosa acicularis Lindl</i>
Fedchenko na'matagi	<i>Rosa fedtschenkoana Regel</i>
Qalqonburun na'matagi	<i>Rosa corymbifera Borkh.</i>
Qumsevar na'matak	<i>Rosa psammophila Chrshan</i>

Qo‘qon na‘matagi	<i>Rosa kokanica</i> (Regel.) Regel
------------------	--

Fedchenko na‘matagi (*Rosa fedtschenkoana* Regel) yirik, bo‘yi 2-3, ba‘zan 6 m gacha bo‘lgan buta. Tikanlari yirik, gorizental joylashgan, qattiq asos qismi kengaygan bo‘lib, yirik shoxlarida zichroq joylashgan. Murakkab barg bo‘lakchalari bargchalari qalin, zangori, tuksiz. Gullari yirik, oq yoki pushti rangli. Mevasi yirik (5 sm gacha uzunlikda), etli, to‘q qizil, tuxumsimon. Asosan, O‘rta Osiyoda (Tyan-Shan, Pomir-Oloy tog‘larida) tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi. O‘zbekistonning Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tog‘li hududlarida ko‘p tarqalgan [1, 2, 3].

Na‘matak gullari dorivor xususiyatlarga ega emas, ammo mevalari xalq tabobatida keng qo‘llaniladi. Meva urug‘ida E vitamini va moylar bor. Na‘matak mevalari ko‘pincha avitaminoz kasalliklarida qo‘llaniladi. Urug‘dan olingan moyi va mevasining yumshoq qismidan tayyorlangan moyli ekstrakti «karotolin» kuyganni, tropik yaralarni ekzema, teri kasalliklarini, rentgendan kuygan joylar, yarali kolit va boshqa kasalliklarda ishlatiladi. Na‘matak turlarining ba‘zi turlaridan vitaminli sharbatlar tayyorlanadi Odatda tabobatda na‘matak damlamasidan foydalaniladi.

Shamollashning oldini olish va davolash

uchun tavsiya etishadigan na‘matak mevalarining damlamasi - askorbin kislotasi (vitamin C) ning tabiiy manbai sanaladi. Ushbu o‘simlik mevalarida C vitamini ekzotik limon va apelsinga qaraganda 50 barobar, qora smorodina tarkibidagidan esa 10 barobarga ko‘proq. Na‘matakni hozir ayni kuz va qishda avjiga chiqadigan shamollash va viruslarni oldini olishda ham, ularni davolashda ham iste‘mol qilish kerak Bundan tashqari, u bir qator foydali mikroelementlar, shu jumladan kaliy, magniy, kaltsiy va natriyni o‘z ichiga oladi.

Na‘matak immunitetni mustahkamlab, organizmni sog‘lom qiladi, yurak va qon-tomir tizimiga yaxshi ta‘sir ko‘rsatadi, qon bosimini normallashtiradi, kamqonlikda ham foydali sanaladi, oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilab, zarali toksinlar va shlaklarni chiqarib tashlaydi, ozishga yordam beradi, o‘t va siydik haydovchi vosita sanaladi.

Na‘matak siropi yoki mevalardan tayyorlangan choy sovuq mavsumda juda samarali ichimlik sanaladi, ayniqsa viruslar faollashganda va immunitet darajasi pasayganda ushbu xalqona vosita muntazam ravishda qabul qilib boriladigan bo‘lsa, unda shamollashdan saqlanish, shifo jarayonini tezlashtirish va kasallikdan keyin tezroq tiklanish mumkin bo‘ladi.

Na‘matak damlamasi tayyorlash uchun

termosga uning 3 osh qoshiq quruq mevalari va bir litr qaynoq suv solinadi. Aralashma 12 soat davomida tindiriladi. Tayyor damlama ovqatdan 30-40 daqiqa oldin qabul qilinadi. Damlama tayyorlashdan oldin mevalarni yaxshilab yuvib, maydalash tavsiya etiladi [1, 2, 3].

Jadval 2. Namatak o'simligining ozuqaviy qiymati

100 g na'matakning ozuqaviy kaloriyasi:	162 kkal
Yog'lar	0.3 g
Uglevodlar	38g
Oqsil	1,6 g
Nartiy	4 mg
Kaliy	429 mg
Temir	1,1 mg
Magniy	69 mg
Vitamin A	217 mg
Vitamin B6	0,1 mg
Vitamin C	426 mg

Na'matakdan shifobaxsh vosita sifatida foydalanish uchun ko'plab ko'rsatmalar mavjudligiga qaramay, u inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Na'matakni ko'p iste'mol qilish oshqozon sekretsiasining oshishi, ya'ni kislotalilik darajasining ortishi, gastritning rivojlanishi,

allergik (dermatologik) holatlar, qon tomirlarda tromblarning shakillanishi, endokardit, pankreatit kabi kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi.

Na'matakni ehtiyotkorlik bilan qabul qilish kerak. Chunki tish emalining yupqalanishini tezlashtiradi, ich qotishiga sabab bo'ladi, safro sekretsiasini sekinlashtiradi, qon bosimining ko'tarilishiga va sariq kasalligining rivojlanishiga olib keladi. Ushbu o'simlikning odam uchun kundalik me'yor - 10 tagacha mevani tashkil qiladi. Bunda ularni maydalab, choyga qo'shish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, na'matakda inson organizmi uchun foydali moddalar ko'p, ayniqsa ayni atrof-muhit ekologiyasi salbiy tarafga o'zgargan vaqtda juda ahamiyatlidir. Belgilangan miqdorda va ehtiyotkorlik bilan iste'mol qilingan na'matak damlamasi foydali va kerakli mahsulot hisoblanadi. Na'matak tarkibida ko'p miqdorda vitamin C tutishi bilan ajralib turadi. 100 gr mahsulotda 426 mg vitamin C bor va shuning uchun na'matakdan xalq tabobatida shamollashning oldini olish va davolash uchun qo'llaniladi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. H.X.Xolmatov, O'.A.Ahmedov Farmakognezিয়া Toshkent 2008
2. Po'latova T.P, Xolmatov H.X Farmokognoziya amaliyoti Toshkent 2002
3. A.S. Dariyev, B.A. Sirojiddinov, E.YU. Ro'zmatov Na'matak (Rosa L) morfologiyasi, anatomiyasi, ekologiyasi Andijon-2016